УДК: 616.155.194.8

**Muradova Railya Rustamovna** - assistent
*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti (Samarqand, O`zbekiston)*

## HOMILADOR AYOLLARDA ANEMIYA DARAJASI VA TEMIR PREPARATLARI SAMARADORLIGINING STATISTIK TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada 12-36 hafta muddatidagi 63 nafar homilador ayollarda anemiya darajasi va temir preparatlari bilan davolash samaradorligi statistik tahlil asosida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida gemoglobin va ferretin ko‘rsatkichlari asosida bemorlarning holati baholandi, davolashdan oldin va keyin olingan ma’lumotlar solishtirma tahlil qilindi va natijalarda temir preparatlari anemiyani kamaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.*

***Kalit so'zlar:*** *anemiya, homiladorlik, temir preparatlari, statistik tahlil, gemoglobin, ferretin.*

**Muradova Railya Rustamovna** - assistent
*Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)*

## STATISTICAL ANALYSIS OF THE LEVEL OF ANEMIA AND THE EFFECTIVENESS OF IRON SUPPLEMENTS IN PREGNANT WOMEN

***Abstract.*** *This article uses statistical analysis to examine the level of anemia and the effectiveness of iron supplementation in 63 pregnant women aged 12–36 weeks. The study assessed the patients' hemoglobin and ferritin levels, and compared data obtained before and after treatment. The results demonstrated the high effectiveness of iron supplementation in reducing anemia.*

***Key words:*** *anemia, pregnancy, iron supplements, statistical analysis, hemoglobin, ferritin.*

**Мурадова Раиля Рустамовна** - ассистент
*Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)*

## СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ АНЕМИИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПРЕПАРАТОВ ЖЕЛЕЗА У БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИН

***Аннотация.*** *В данной статье на основе статистического анализа изучен уровень анемии и эффективность лечения препаратами железа у 63 беременных женщин в возрасте 12–36 недель. В ходе исследования состояние пациенток оценивалось по показателям гемоглобина и ферретина, а также сравнивались данные, полученные до и после лечения. Результаты показали высокую эффективность препаратов железа в снижении анемии.*

***Ключевые слова:*** *анемия, беременность, препараты железа, статистический анализ, гемоглобин, ферретин.*

**Kirish.** Temir tanqisligi anemiyasi (TTA) dunyoda eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lib, shuningdek, aholi mehnat qobiliyatining kamayishiga olib keladigan asosiy sabablardan biridir [1]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha homilador ayollarning 38% da anemiya kuzatiladi, shuningdek, bu guruhdagi anemiyaning taxminan 50% ini temir tanqisligi anemiyasi tashkil qiladi [2]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda homilador ayollarda TTA tarqalishi 50–60% gacha yetadi, rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 10% dan 30% gacha o‘zgaradi [3]. Temir barcha hujayralarning faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u kislorod tashish, elektronlar transporti va fermentativ faollikda ishtirok etadi. Yuqori metabolizmga ega bo‘lgan hujayralar ko‘proq temir talab qiladi va temir tanqisligi paytida disfunktsiyaga ko‘proq moyil bo‘ladi. Shu sababli homila ona qornidagi rivojlanish davrida temirga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshadi. Homiladorlik davrida temirga bo‘lgan ehtiyoj organizmdagi qon hajmi oshishi va homilaning o‘sishi bilan sezilarli darajada ortadi **[4]**.

**Homiladorlik davridagi kamqonlik (anemiya) tashxisi klinik tavsiyalarga asosan quyidagicha qo‘yiladi:** Qondagi gemoglobin (Hb) miqdorining aniqlanishiga asoslanadi: homiladorlikning birinchi va uchinchi trimestrlarida Hb miqdori **110 g/l dan kam** bo‘lsa, ikkinchi trimestrda esa **105 g/l dan kam** bo‘lsa, tug‘ruqdan keyingi davrda — **tug‘ruqdan 24–48 soat o‘tgach Hb 100 g/l dan kam** bo‘lsa, anemiya deb hisoblanadi**. Anemiyaning og‘irlik darajalari gemoglobin miqdoriga ko‘ra baholanadi: yengil daraja —** Hb 90–

110 g/l, **o‘rtacha daraja —** Hb 70–90 g/l, **og‘ir daraja** — Hb 70 g/l dan kam **[5]**.

**Tadqiqot maqsadi.** Ushbu tadqiqotdan maqsad —homilador ayollarda temir tanqisligi anemiyasining uchrash chastotasini, uning darajasiga qarab temir preparatlari (peroral va parenteral shakllar)ning klinik va laborator samaradorligini o‘rganish hamda ularning ta’sirini statistik tahlil asosida solishtirishdir.


**Material va usullar.** Tadqiqot Samarqand shahridagi 10-oilaviy poliklinikasida 2024–2025 yillar davomida o‘tkazildi. Umumiy hisobda 63 nafar homilador ayol tekshiruvga jalb qilindi. Barcha ishtirokchilar homiladorlikning II–III trimestrida bo‘lgan. Ular gemoglobin (Hb), eritrotsitlar soni, gematokrit (Ht), temir va ferritin miqdori ko‘rsatkichlari asosida anemiya darajasiga ko‘ra uch guruhga bo‘lindi. I-guruhda 21 nafar Yengil darajadagi anemiya bilan (Hb 90–110 g/l), II-guruhda 21 nafar O‘rta darajadagi anemiya bilan (70–90 g/l), III-guruhda 21 nafar Og‘ir darajadagi anemiya bilan (Hb 70 g/l dan kam) bo`lgan homilardor ayollar olindi.

I-guruhdagi 21 nafar ayollarga yengil anemiya tashxisi qo`yilgan va temir ($Fe^{2+}$) sulfati 200 mg/kun, 1 oy ichishga berildi. II-guruhdagi 21 nafar ayollarga o‘rta darajadagi anemiya tashxisi qo`yilgan va ularga temir polimaltozat kompleksi 100 mg/kun, 1 oy davomida buyurildi. III-guruh 21 nafar og‘ir darajadagi anemiya bilan ayollarga temir sukroz (parenteral, 200 mg haftasiga 2 marta, 3 hafta) davomida buyurildi.

**Natijalar**. Tadqiqot natijalari 1-oylik davo kursidan oldin va keyin tahlillar o`tkazildi. Hb ko‘rsatkichining o‘sishi: I-guruhda o‘rtacha +12.2 g/l ($p<0.05$), II-guruhda +24.2 g/l ($p<0.01$), III-guruhda +38.8 g/l ($p<0.001$) ni tashkil etdi. Ferritin darajasi: Eng sezilarli oshish III-guruhda kuzatildi (temir sukroz in’yeksiyasi fonida), bu organizmda temir zaxiralarining samarali tiklanishini ko‘rsatdi.

Davo tugaganidan so‘ng 63 ayoldan: 18 nafar (85.7%) I-guruhda umumiy holat yaxshilangan, lekin 3 nafarida anemiya saqlangan. 20 nafar (95.2%) II-guruhda to‘liq remissiya kuzatildi. 21 nafar (100%) III-guruhda gemoglobin normallashgan (≥120 g/l).

Quyidagi jadvalda o‘rtacha laborator ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar keltirilgan.




***1-rasm.*** **Temir preparatlari qo‘llangandan keyingi gematologik ko‘rsatkichlar o‘zgarishi**

***1-jadval.***

**Statistik natijalarga ko`ra homilador ayollarning klinik simptomlarini baholash**

| Simptomlar | Dastlab (%) | Davolashdan so`ng (%) |
|---|---|---|
| Umumiy holsizlik | 84.1 | 23.8 |
| Taxikardiya | 47.6 | 9.5 |
| Bosh aylanishi | 61.9 | 15.8 |
| Terining oqarishi | 71.4 | 25.4 |
| Uyquchanlik | 66.7 | 19.0 |

**Xulosa.** Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, homilador ayollarda temir tanqisligi anemiyasi darajasi oshgani sari peroral temir preparatlarining samaradorligi pasayadi, parenteral shakldagi temir preparatlari esa eng tez va barqaror klinik va laborator ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ferritin va gematokritning keskin oshishi, shuningdek, klinik belgilar (holsizlik, bosh aylanishi, taxikardiya) kamayishi III-guruhda yaqqol namoyon bo‘ldi.

**ADABIYOTLAR**

1. Elmore C., Ellis J. Screening, treatment, and monitoring of iron deficiency anemia in pregnancy and postpartum //Journal of midwifery & women's health. – 2022. – T. 67. – №. 3. – C. 321-331.

2. Iolascon A. et al. Recommendations for diagnosis, treatment, and prevention of iron deficiency and iron deficiency anemia //Hemasphere. – 2024. – T. 8. – №. 7. – C. e108.

3. James A. H. Iron deficiency anemia in pregnancy //Obstetrics & Gynecology. – 2021. – T. 138. – №. 4. – C. 663-674.

4. Mari G. et al. Society for Maternal-Fetal Medicine (SMFM) Clinical Guideline# 8: the fetus at risk for anemia–diagnosis and management //American journal of obstetrics and gynecology. – 2015. – T. 212. – №. 6. – C. 697-710.

5. Obeagu E. I. Anemia in Early Pregnancy: Screening, Prevention, and Treatment //Nursing. – 2024. – T. 4. – №. 6. – C. 90-95.